

FRANSUZ TILIDA RAVISHLARNING SEMANTIK EVOLYUTSIYASI VA INTENSIVLIKNI IFODALASHDAGI ROLI

Azamatbek Abduxalilovich NORMATOV

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Andijon davlat chet tillari instituti

Andijon, O'zbekiston

e-mail: normatovazamatbek84@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-5411-2091>

Annotatsiya

Maqolada fransuz tilida *-ment* qo'shimchali ravishlar yordamida sifat intensivligini ifodalash masalasi semantik va funksional jihatdan tahlil qilingan. Bunday ravishlarning sifat bilan birikish xususiyatlari, ularning nutq jarayonida yuz beradigan semantik transformatsiyasi hamda grammatiklashuv jarayoni ko'rib chiqilgan. Shuningdek, *-ment* qo'shimchali ravishlarning stilistik imkoniyatlari va belgining kuchaytirilgan darajasini ifodalashdagi roli misollar bilan yoritilgan. Natijada ushbu birliklar fransuz tilida intensivlik kategoriyasini ifodalovchi muhim lingvistik vositalardan biri ekanligi ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: intensivlik kategoriyasi, *-ment* qo'shimchali ravishlar, semantik evolyutsiya, grammatiklashuv jarayoni, sifat intensivligi, fransuz tilshunosligi.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ НАРЕЧИЙ И ИХ РОЛЬ В ВЫРАЖЕНИИ ИНТЕНСИВНОСТИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Азаматбек Абдухалилович Норматов

доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Андижанский государственный институт иностранных языков

Андижан, Узбекистан

Аннотация

В статье с семантического и функционального аспекта анализируются вопросы выражения интенсивности прилагательного с помощью наречий с суффиксами *-мент* во французском языке. Анализируются особенности сочетаемости таких наречий с прилагательными, их семантическая трансформация в процессе речи, а также процесс грамматикализации. Кроме того, на конкретных примерах освещаются стилистические возможности наречий с суффиксом *-ment* и их роль в выражении усиленной степени признака. В результате показано, что данные единицы являются одними из важных лингвистических средств выражения категории интенсивности во французском языке.

Ключевые слова: категория интенсивности, наречия с суффиксом *-ment*, семантическая эволюция, процесс грамматикализация, интенсивность признака, французская лингвистика

Jahon tilshunosligida sifat (belgi) intensivligini ifodalash semantik va pragmatik jihatdan muhim lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi. Til orqali inson nafaqat predmet yoki hodisaning mavjudligini, balki uning darajasini, kuchini yoki intensivligini ham ifodalashi mumkin. Shu sababli til tizimida belgining turli darajalarini ifodalovchi ko‘plab lingvistik vositalar shakllangan. Fransuz tilida daraja kategoriyasi an’anaviy ravishda sifat va ravishlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Biroq belgining intensivligini ifodalash faqatgina oddiy qiyosiy yoki orttirma daraja konstruktsiyalari bilan cheklanib qolmaydi. Intensifikatsiya hodisasi til tizimida turli grammatik va leksik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, daraja ravishlari, kuchaytiruvchi sintaktik konstruktsiyalar, leksik intensifikatorlar hamda morfologik vositalar yordamida belgining darajasi ifodalanishi mumkin.

Mazkur vositalar orasida *-ment* qo‘shimchasi yordamida hosil bo‘lgan ravishlar fransuz tilida eng sermahsul va keng qo‘llaniladigan birliklardan biri hisoblanadi. Ushbu qo‘shimcha sifat asoslaridan ravish hosil qilish imkonini beradi va natijada katta miqdordagi leksik birliklar shakllanadi. Bunday ravishlar fe’lni, sifatni yoki butun gapni aniqlashi mumkin. Shu bilan birga, ayrim *-ment* qo‘shimchali ravishlar vaqt o‘tishi bilan semantik evolyutsiyaga uchraydi. Dastlab ular sifat asosining leksik ma’nosini saqlagan holda ishlatiladi. Biroq nutq jarayonida ularning semantik tarkibi asta-sekin umumlashib boradi va ular belgining darajasini ifodalovchi birliklarga aylanishi mumkin. Natijada ravishlar sifat bilan birikib, belgining kuchaytirilgan darajasini ifodalovchi sintaktik konstruktsiyalarni hosil qiladi.

Fransuz tilshunosligida mazkur hodisa bir qator olimlar tomonidan tahlil qilingan. Xususan, Sharl Balli ravishlarning sifat bilan birikish xususiyatlarini o‘rganib, bunday konstruktsiyalarda ravishlar sifatning o‘zini emas, balki uning darajasini ifodalashini ta’kidlaydi. Shuningdek, Ferdinand Bryuno, Kristoffer

Nirop va Albert Dauza ishlanmalarida fransuz tilida ravishlarning semantik evolyutsiyasi, ularning grammatik funksiyalarining kengayishi hamda stilistik imkoniyatlari haqida muhim ilmiy qarashlar bayon qilingan. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu jarayon ko'pincha grammatiklashuv yoki desemantizatsiya hodisasi bilan izohlanadi. Bunda leksik birliklar asta-sekin o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotib, grammatik yoki funksional birliklarga aylanishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, fransuz tilida *-ment* qo'shimchali ravishlar yordamida sifat intensivligini ifodalash modelini semantik va funksional jihatdan o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Fransuz tilida sifat intensivligini ifodalash masalasi tilshunoslikning semantika, funksional grammatika hamda stilistika kabi muhim yo'nalishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan lingvistik muammolardan biridir. Belgining darajasi yoki intensivligini ifodalash til tizimining universal xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur hodisa nafaqat fransuz tilshunosligida, balki umumiy tilshunoslik doirasida ham keng o'rganilgan. Tilshunoslikda intensivlik kategoriyasini o'rganish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllana boshlagan. Ayniqsa fransuz tilshunosligida bu masala sifat va ravishlarning semantik hamda funksional xususiyatlari bilan bog'liq holda tadqiq qilingan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlarda belgining darajasini ifodalovchi lingvistik vositalar, ularning semantik evolyutsiyasi hamda nutqdagi funksional vazifalari tahlil etilgan.

Fransuz tilida ravishlarning sifat bilan birikishi masalasiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy qarashlar fransuz tilshunoslik maktabining yirik vakillaridan biri bo'lgan Charl Balli nomi bilan bog'liq. Uning tilning ekspressiv vositalariga bag'ishlangan ishlari [1; 120] intensivfikatsiya hodisasini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Sh. Balli ravishlarning sifat bilan birikish xususiyatlarini tahlil qilib, bunday konstruksiyalarda ravishlar sifatning o'zini emas, balki uning darajasini ifodalashini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ravishlar sifat bilan birikib belgining kuchaytirilgan darajasini ifodalash orqali nutqning ekspressivligini oshiradi. Sh. Balli o'z tadqiqotlarida shuni ta'kidlaydiki, ayrim

ravishlar nutq jarayonida o'zining dastlabki leksik ma'nosini qisman yo'qotib, belgining darajasini ifodalovchi grammatik vositalarga aylanadi [1; 124]. Bu hodisa tilshunoslikda keyinchalik grammatiklashuv jarayonining muhim ko'rinishlaridan biri sifatida talqin qilina boshladi.

Sa femme, qui avait teint ses cheveux en roux, était devenue extrêmement coquette. (G.Simenon. Le veuf, p.132).

L'orchestre jouait un boggy-woogy extrêmement ralenti. (E.Vailland. Beau Masque, p.43).

Fransuz tilida ravishlarning semantik evolyutsiyasi va grammatik funksiyalarini o'rganishda Ferdinand Bryunoning ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Uning ko'p jildli "Histoire de la langue française" asarida [2 ; 211] fransuz tilining tarixiy rivojlanishi jarayonida ravishlarning shakllanishi va ularning semantik transformatsiyasi keng yoritilgan. F. Bryuno ravishlarning tarixiy taraqqiyoti davomida ularning leksik ma'nosi asta-sekin umumlashib borishini hamda grammatik funksiyalarga ega bo'lishini ko'rsatadi. Mazkur masalani o'rganishda daniyalik tilshunos Kristoffer Nirop ham muhim ilmiy hissa qo'shgan. Uning "Grammaire historique de la langue française" asarida [4; 560] fransuz tilida ravishlarning morfologik tuzilishi, xususan *-ment* qo'shimchasi yordamida hosil bo'lgan ravishlarning shakllanish jarayoni tahlil qilingan.

Il éprouvait le besoin d'avoir un être à ses côtés, totalelement dévoué, absolument sûr, sans ruses. (M.Monod. Le whisky de la reine, p.171).

- Vous resterez tant que vous voudrez, dit Mathieu.

... Je suis entièrement libre. (J.-P.Sartre.L'âge de raison, p. 369).

K. Nirop ravishlarning semantik rivojlanish jarayonida ularning kombinator imkoniyatlari kengayib borishini hamda turli sintaktik funksiyalarni bajarishga qodir bo'lishini ta'kidlaydi.

Fransuz tilida ravishlarning stilistik imkoniyatlarini o'rganishda Albert Dozaning ishlari ham muhim o'rin tutadi. Olim ravishlarning nutqdagi ekspressiv va emotsional funksiyalarini tahlil qilib, ular yordamida nutqning baholovchi va subyektiv xarakteri kuchayishini ko'rsatadi [5; 46]. Ayniqsa *-ment* qo'shimchali

ravishlar sifat bilan birikkanida nutqda kuchaytiruvchi effekt hosil qilishini ta'kidlaydi. Keyingi davr tilshunosligida intensivlik kategoriyasi funksional grammatika va semantik tahlil doirasida ham keng o'rganila boshladi. Zamonaviy tilshunoslar belgining darajasini ifodalovchi lingvistik vositalarni til tizimining muhim semantik kategoriyalaridan biri sifatida ko'rib chiqadilar. Bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlarda daraja ravishlari, kuchaytiruvchi konstruktsiyalar hamda leksik intensivliklarning funksional xususiyatlari chuqur tahlil qilingan.

Zamonaviy fransuz tilshunosligida ravishlarning grammatiklashuvi masalasi ham alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Grammatiklashuv nazariyasiga ko'ra, ayrim leksik birliklar vaqt o'tishi bilan o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotib, grammatik yoki funksional birliklarga aylanishi mumkin. Ushbu jarayon ravishlarning semantik rivojlanishida ham kuzatiladi. Ayniqsa *-ment* qo'shimchali ravishlar bu jarayonning yorqin misoli hisoblanadi. Dastlab sifat asoslaridan hosil bo'lgan bunday ravishlar o'zining leksik ma'nosini saqlagan holda ishlatiladi. Biroq nutq jarayonida ular ko'pincha belgining darajasini ifodalovchi umumlashgan birliklarga aylanadi. Natijada ular sifat bilan birikib, belgining kuchaytirilgan darajasini ifodalovchi sintaktik konstruktsiyalarni hosil qiladi.

Fransuz tilshunosligida olib borilgan ko'plab ilmiy ishlarda *extrêmement*, *excessivement*, *absolument*, *totalement*, *parfaitement* kabi ravishlarning aynan intensivlikni ifodalash funksiyasiga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Bunday ravishlar sifat bilan birikib belgining juda yuqori darajasini ko'rsatadi hamda ko'pincha oddiy daraja ko'rsatkichlari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Shuningdek, ayrim ravishlar nutqda kuchli emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'ladi. Masalan, *drôlement*, *rudement*, *bougrement*, *bigrement*, *formidablement* kabi ravishlar sifat bilan birikib nutqqa subyektiv baholash elementini olib kiradi [6; 18]. Bunday konstruktsiyalar ko'pincha og'zaki nutq yoki badiiy uslubda keng qo'llaniladi.

Bunday turdagi ijobiy/salbiy emotsional-ekspressiv kuchaytiruvchi formantlar obyektiv-baholash, neytral planda sifatning yuqori darajasini

ifodalovchi kuchaytiruvchilardan farqli ravishda, soʻzlashuv nutqi uchun xarakterli hisoblanib, ular tilda barqaror emasligi bilan ajralib turadi. Nutqda juda koʻp qoʻllanilishi natijasida ularda emotsional boʻyoqning siyqalanishi sodir boʻlib, ular oʻzining ekspressivligini yoʻqotadi, bu esa, oʻz navbatida, ularni boshqa yangi ijobiy/salbiy kuchaytiruvchi formantlar bilan almashtirishni taqozo etadi. Shunday qilib, emotsional omillarning taʼsiri sababli tilda mazkur fenomenlarning katta bazasi paydo boʻladi. Biroq psixologik yoki emotsional-ekspressiv omillarni yangi kuchaytiruvchi formantlarning paydo boʻlishida yagona vosita deb hisoblash mumkin emas. Bunga ijtimoiy-tarixiy jihatlar ham katta taʼsir koʻrsatadi chunki, ayrim soʻzlarning turli rivojlanish bosqichlarida tutgan oʻrni va ahamiyati, bir kuchaytiruvchi formantni boshqasi bilan almashtirishda uni boshqacha idrok etish, obyektiv voqelikni yangicha baholash bilan koʻp jihatdan bogʻliq. Ularning baʼzilari esa maʼlum bir vaqt oraligʻida keng tarqalib, tilda urfga aylanadi.

Molyer davridan keyin fransuz tilining rivojlanish bosqichida inkor-baholash sifatleri bilan oʻzaro bogʻliq boʻlgan ravishlar (*terriblement, affreusement, follement, horriblement, abominablement, furieusement*) sifatning kuchaytiruvchi rovida sezilarli darajada ommalashdi. Desemantizatsiya darajasi, yaʼni dastlabki belgi mazmunining yoʻqolishi va kuchaytirish maʼnosining rivojlanishi bu ravishlarda turlicha boʻlib, ularning ayrimlari sifat-baholash maʼnosini saqlab qoladi. Natijada, ularning boshlangʻich maʼno bilan assotsiativ aloqalari soʻz birikmalariga yorqin emotsional tus bagʻishlaydi.

Masalan:

– *Vous êtes terriblement gracieux le matin, je vous aime mieux quand vous dormez. (M.Levy, Et si c'était vrai... – p.42).*

Il ne comprenait pas, et le corps de sa femme, accrochée à lui, lui sembla affreusement lourd. (L.Slimani, Le pays des autres. – p.14).

Je vous montrerai cette botte-là, car elle est furieusement utile. (Balzac, Le père Goriot. p. 232).

La situation était abominablement délicate. (A.Stil, La douceur. p.71).

Après quelques jours et nuits passés à Okrestina, vous comprendrez combien cinq années de plus paraîtront horriblement longues; peut-être alors vous déciderez-vous à vous montrer raisonnable. (M.Levy, Noa. – p.234).

Je vous suis follement reconnaissante d'avoir posé pour moi, il u a si longtemps que je n'ai pas eu de modèle vivant. (E.Triolet, Le cheval blanc. – p.63).

Yuqoridagi misollarda, bu ravishlarning ayrimlari daraja ma'nosini rivojlantirsa, ayrimlarida esa qiyoslash alomati yetarli darajada sezilarlidir. Shuning uchun “*affreusement lourd*”, “*horriblement longue*”, “*follement reconnaissante*” sifat birikmalarida darajaning ma'nosi emas, balki belgi-xususiyati ustundir. Qolgan misollarda esa *terriblement*, *affreusement*, *horriblement*, *follement* ravishlari darajani kuchaytirishi va ijobiy belgini ifodalovchi so'zlar bilan birikmaga kirisha olganligini ko'rsatadi. Bunday so'z birikmalari asosida esa mubolag'a yotadi (qiyoslash uchun: “*terriblement éloignée*”, “*terriblement tard*”, “*abominablement délicate*”, “*follement belle*”, “*follement élégante*”, “*follement reconnaissante*”). Bu ravishlar belgining yuqori darajasini emotsional-ekspressiv, subyektiv xarakterlab, sifatning cheklanmagan ijobiy/salbiy kuchaytiruvchi formantlarini hosil qiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan *-ment* bilan yakunlanuvchi ravishlarning tahliliga tayangan holda, ta'kidlash lozimki, ular *très* tipidagi ravishlar bilan eng yaqin munosabatga ega bo'lib, ularni turli til uslublaridagi o'rni va ahamiyatini fransuz badiiy adabiyoti matnlarini o'rganish, fransuz tilshunoslarining kuzatishlari, shuningdek, fransuz tilining turli izohli va lingvistik lug'atlari asosida bilish mumkin.

Kuchaytiruvchi ravishlarning ikkinchi guruhini sifatlar bilan birikmada sifatning intensivligini subyektning voqelikka nisbatan psixologik munosabati sifatida kelib chiquvchi emotsional bahoni ifodalash orqali kuchaytiradigan *-ment* bilan yakunlanuvchi ravishlar tashkil qiladi. Mazkur ravishlarda daraja ma'nosi maksimal abstraksiyaga ega emas hamda ularda ma'nodagi qo'shimcha nozik farqlar bilan murakkablashtirilgan bo'ladi. Ularda belgining yuqori darajasi faqat ma'lum semantik qurshovda rivojlanadi va darajaning ma'no yoki sifatlar bilan

ifodalangan emotsional-subyektiv bahosi ustun kelishini aniqlash ko‘pincha juda qiyin bo‘ladi. Kuchaytirish ma’nosining kristallashuvi bunday ravishlarda kontekstning o‘zi hamda unda mavjud bo‘lgan kalit so‘zlarining hisobiga sodir bo‘ladi.

Masalan:

*Balzac, chaussé de babouches fourrées, se drapait dans sa robe de chambre en termolama, étoffe circassienne merveilleusement chaude et légère. (A.Maurois, *Prométhée ou la vie de Balsac*, – p.573).*

*On dénichait dans la nuit çà et là des quarts d’heure qui ressemblaient assez à l’adorable temps de paix, à ces temps devenus incroyables, où tout était bénin, où rien au fond ne tirait à conséquence, où s’accomplissaient tant d’autres choses, toutes devenues extraordinairement, merveilleusement agréables. (Louis-Ferdinand Céline, *Voyage au bout de la nuit*. – p.33).*

*L’appartement était admirablement rangé, les voilages desfenêtres affichaient un blanc insolent; le tapis rouge du salon semblait immaculé. (M.Levy, *Noa*. – p.194).*

*Son torse nu, admirablement musclé et couvert de tatouages, fait un contraste pénible avec le pauvre corps usé qui s’apprête à mourir. (J.Laffitte, *Ceux qui vivent*. – p.163).*

*Son idée à elle était qu’Annabel rencontrerait un jour prochain un prince ou au moins un duc, admirablement beau et fabuleusement riche. (M.Monod, *Le whisky de la reine*. – p.125).*

*– Vous et moi aidant, monsieur, elle démontrera victorieusement qu’elle ignorait tout, qu’elle a été abominablement trompée. (E.Gaboriau, *Le crime d’Orcival*. – p.352).*

*Son visage s’allongea. Il eut l’air incroyablement malheureux. (Vercors, *Le silence de la mer*. – p.178).*

Oui, j’ai presque un effort à faire aujourd’hui pour comprendre, comme je le comprenais alors, qu’un homme pût être si mortellement découragé qu’il lui fût

impossible pendant des semaines sourire". (Vercors, *Le silence de la mer.* – p.11-12).

Daniel courait près de lui; il avait pour un instant la colère délivrée de son fardeau, allégé de tout regret, follement avide d'aventure. (R.-M. du Gard, *Les Thibault.* – p.71).

... il s'attarda un peu en divers points de la pièce, puis retourna sur le visage, impitoyablement insensible, qu'il avait quittée. (Vercors, *Le silence de la mer.* – p.40).

Ses yeux s'attardaient sur le profil incliné de ma nièce, immanquablement sévère et insensible. (Vercors, *Le silence de la mer.* – p.31).

Elle était atrocement malheureuse... (E. Triolet, *Le cheval blanc.* – p.298).

Yuqorida keltirilgan birikmalarda sifat va miqdor ma'nolari bir-biriga chambarchas qo'shilib ketgan. Biroq butun kontekstni sinchiklab tahlil qilish orqali ushbu so'z birikmalarining kuchaytirish ma'nosini ko'rish mumkin. Darhaqiqat, "*merveilleusement chaude*" so'z birikmasi "*très chaude*" tushunchasiga muqobil, chunki u juda issiq bo'lgan matoni bildiruvchi "*termolama*" so'zining ma'nosini ochib bergan bo'lsa, "*merveilleusement agréable*" birikmasi esa, sifatni yuqori darajasining emotsional-baholash ma'nosini ifodalaydi, chunki "*agréable*" sifatining ma'nosini "*merveilleusement*" miqdor ravishi kuchaytirishga ko'maklashadi. "*Admirablement*" ravishidagi kuchaytiruvchi nozik farq kontekstning o'zi bilan, ya'ni baquvvat tanani oriq, ozib-to'zib ketgan tanaga solishtirish orqali aniqlashtiriladi. Shunday qilib, "*admirablement musclé*" so'z birikmasi o'zak morfemasining ma'nosi bilan "*très musclé*" tushunchasini ifoda qiladi. *Admirablement beau* va *fabuleusement riche* so'z birikmalarida semantikasi bo'yicha yaqin bo'lgan *beau* va *riche* so'zlarining ta'siri ostida rivojlangan miqdor ma'nosi ustunlik qiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan *-ment* bilan yakunlanuvchi kuchaytiruvchi ravishlarning kuchaytirish vazifasi, shuningdek sifatning yuqori darajasi ma'nosining semantik umumiylikiga qarab, bir sinonimik qatorga birlashadi va ular o'zining emotsional, ekspressiv va stilistik bo'yog'i darajasiga qarab

tabaqalashadi. O‘z navbatida, “*très*” dominanti atrofida yig‘ilgan *-ment* bilan yakunlanuvchi kuchaytiruvchi ravishlar ikkita guruhga bo‘linadi. Bular belgi-xususiyatini maksimal darajada yo‘qotib darajaning mavhum ma’nosini rivojlantirgan *extrêmement, excessivement, hautement, grandement, parfaitement, suprêmement, infiniment* ravishlari, shuningdek, sifatning emotsional-baholash darajasini subyektiv ifodalashning vositasi bo‘lgan *affreusement, rudement, durement, drôlement, joliment, formidablement, terriblement, parfaitement, bêtement* ravishlari birinchi guruhni tashkil qilsa, ikkinchi guruhni sifat bilan berilgan xususiyatni hamda darajaning ma’nosini birga qo‘shib ifodalovchi *mortellement, fabuleusement, incroyablement, particulièrement, admirablement, follement, merveilleusement, atrocement* ravishlaridir.

Shu tariqa, fransuz tilshunosligida intensivlik kategoriyasini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ravishlarning sifat bilan birikishi til tizimida muhim semantik va funksional hodisalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, *-ment* qo‘shimchali ravishlar belgining darajasini ifodalashda eng faol vositalardan biri sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda asosan ravishlarning umumiy grammatik xususiyatlari yoki stilistik imkoniyatlari o‘rganilgan bo‘lib, ularning sifat intensivligini ifodalash modeli sifatidagi semantik va funksional mexanizmlari yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Shu sababli fransuz tilida *-ment* qo‘shimchali ravishlar yordamida sifat intensivligini ifodalash modelini semantik, funksional va stilistik jihatdan kompleks tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bally, C. (1913/1965). *Le langage et la vie: linguistique générale et stylistique* (3rd ed.). Genève/Paris: Droz. ISBN 8712239773; 164 pp.
2. Brunot, F. E. J. (1909). *Histoire de la langue française des origines à 1900* (vol. 3.1: *La formation de la langue classique*). Paris: Armand Colin.
3. Brunot, F., & Bruneau, C. (1936/1937). *Précis de grammaire historique de la langue française* (rev. & corr. ed.). Laval/Paris: Masson. 796 pp..

4. Nyrop, K. (1899-1930). Grammaire historique de la langue française (6 vols.). Genève: réimpr. Slatkine. ISBN 9782051022453; 3020 pp.
5. Dauzat, A. (1926). La langue française : sa vie, son évolution. Paris. 200 pp.
6. Pottier B. Systématique des éléments de relation. Etude de morpho-syntaxe structurale romane. – Librairie Klincksieck, 2018.
7. Normatov A.A. Zamonaviy fransuz tilida intensivlik kategoriyasini ifodalovchi sifatlarning lingvostilistik xususiyatlari: mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon: Andijon davlat chet tillari instituti, 2025.